

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA BOG'LANISHLI NUTQ O'STIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MASHG'ULOTLAR IZCHILIGI

Olimjon Eshimbetov

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni masofadan o'qitish kafedrası katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doctori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15081731>

**Annotatsiya.** Boshlang'ich sinif o'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning bog'lanishli nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar izchiligi borasida atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi. Turli tuman interaktiv o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. Asosan, matn vositasida o'quvchilarning bog'lanishli nutq malakasini rivojlantirish usullariga alohida e'tibor berildi.

**Kalit so'zlar:** Matn, nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, so'zlash malakasi, bayon qilish madaniyati, og'zaki hamda yozma nutq

## CONSEQUENCE OF ACTIVITIES RELATED TO THE DEVELOPMENT OF COHERENT SPEECH IN PRIMARY GRADE STUDENTS

**Abstract.** The article provides detailed considerations on the consistency of activities related to the development of coherent speech in primary school students through text. Various interactive games and interactive aspects of their targeted use in the educational process were studied. In particular, special attention was paid to methods for developing students' coherent speech skills through text.

**Keywords:** Text, speech, skills, analysis, method, imagination, interactive, pedagogical technology, pronunciation, interpretation, speaking skills, presentation culture, oral and written speech.

## ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ МЕРОПРИЯТИЙ, СВЯЗАННЫХ С РАЗВИТИЕМ СВЯЗНОЙ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** Комплексный обзор последовательности текстовых занятий для учащихся начальной школы, связанных с развитием связной речи учащихся. Изучались различные интерактивные игры и интерактивные аспекты их целевого использования в образовательном процессе. В частности, особое внимание уделялось методам развития коммуникативно-речевых навыков учащихся с использованием текста.

**Ключевые слова:** Текст, речь, навыки, анализ, метод, воображение, интерактив, педагогическая технология, произношение, интерпретация, навыки говорения, культура презентации, устная и письменная речь.

Jamiyat faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilganligi shaxs omiliga e'tibor ortishiga turtki beradi.

O'z navbatida, inson fenomenining muayyan mavqe kasb etishi qadriyaviy mezonlar barqarorlashuviga sharoit hozirlaydi. Unda ta'lim tizimining uzluksiz mohiyati aks etadi.

Xususan, odamzot ahvoli-ruhiyasini belgilaydigan nutqiy malakani shakllantirish va bosqichma-bosqich takomillashtirish muntazam davom etadigan jarayon hisoblanadi. Joriy hodisa belgi-tovush-ohangni to'g'ri talaffuz qilish, muayyan lug'at zahirasiga ega bo'lish, ulardan o'rinli hamda unumli foydalanish va savodxonlik madaniyatiga erishishdek xususiyatlarni qamraydi. SHu nuqtayi nazardan, nutqiy malakani so'z-so'z birikmasi-gap modellari bog'lanishini ta'minlaydigan asosiy vosita sifatida baholash maqsadga muvofiq keladi.

Operativ tezkorlik hamisha tayyor turgan ong faoliyati bilan bog'liq bo'lib, taassurot hamda mushohada ixchamligini taqozolaydi. Tabiiyki, og'zaki va yozma nutq malakasini uyushtirish subyekt so'z boyligini oshirib borishga ehtiyoj sezadi.

«Nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar izchil, doimiy ravishda o'tkazib borilmasa, ta'limning yaxshi, sifatli bo'lishiga, o'quvchilarning madaniy nutqini egallashlariga erishib bo'lmaydi. SHunga ko'ra, darsda nutq o'stirishni takomillashtirib borish, boshlang'ich sinflar ishini o'rta sinflar ishi bilan, o'rta sinflar ishini yuqori sinflarda amalga oshiriladigan ishlar bilan bog'langan holda davom ettirish o'qituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi[1] »

Har qanday ta'lim jarayoni pedagogdan ijodiy yondashuvni talab etadi. Xususan, bolaning bilish faoliyatini to'g'ri tashkil etish, uning o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni mustaqil fikrlashga yo'naltirish lozim.

Psixologik taomillarga muvofiq, nutqiy faoliyat tinglash va anglash darajalaridan iborat.

Bunda matn xarakteri va mazmuni nazariy axborot tabiatidan kelib chiqadi. To'g'rirog'i, yozish, bayon, ifoda va tarjima uzviy qismlarini bir-biriga tutashtirish murakkab-zahmattalab jarayon sanaladi. Unda asosiy e'tibor tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga qaratiladi.

O'qitish tizimi muhim tarkibiy juzvi – nutqiy faoliyat doimo butunlikni taqozolashini hisobga olsak, masala mohiyati yanada ayonlashadi. Shu nuqtayi nazardan, lug'aviy birliklarni anglash va amaliyotda qo'llash jipsligi ta'lim maqsadi to'g'ri tanloviga borib taqaladi. Ifodali o'qish, materialni o'zlashtirish va tasavvurda qayta tiklash aynan to'g'ri tanlovga bog'lanadi.

Mazkur nuqtada masalaning mohiyati unchalik oydinlashmaydi. SHu boisdan, og'zaki va yozma nutq tabiatini til-adabiyot-mantiq-falsafa-jamiyat uzviy ta'siri jarayonida o'rganish maqsadga muvofiq. Bog'lanishli nutq aqliy, ruhiy va ma'naviy faoliyat hosilasi, unda ijodiy axborot uzluksiz hamkorligi, qayta idrok etish tizimi va mustaqil fikrlash malakasi yaxlit hodisaga aylanadi.

Tasavvurdan tasvirga, tasvirdan ifodaga o'tib turadigan konstruksiya tabiati jarayon tezkorligini taqozolaydi. Eng avvalo, nutq hamda adabiy til mohiyati orasida mavjud tafovutni aniqlashtirish joiz. Lug'aviy birlik to'la o'zlashtirish jarayonida nutqqa evriladi.

To'g'rirog'i, nutqiy malaka muallif talqinidan kitobxon tasavvuriga ko'chishi vositasida salmoq kasb etadi. Jahon madaniyatida «qayta mutolaa» istilohi mavjud. Jiddiy ijodiy mehnat sifatida o'zlashtirish estetikasi «olam va odam haqidagi tasavvurlar, muayyan dunyoqarash bilan o'zaro muloqotga kirishish bosqichi» [2] ekan, nutqiy faoliyat ko'p qirrali jarayon sajiyasini oladi. Unda ijtimoiy mohiyat va ruhiy madaniyat, tasavvur tiniqligi va taassurot yaxlitligi, ifoda mustaqilligi va tasvir muqobilligi aks etadi.

Ma'lumki, bolalarda kuzatish asta-sekin rivojlanib boradi. O'quvchilar quyi sinfdan boshlab ob-havo, tabiat voqea-hodisalarini (yil fasllaridagi o'zgarishlar, kun va tunning almashinishi, kunning qisqarishi, tunning uzayishi yoki qisqarishi) kuzatib, kalendarga belgilab boradilar. Kuzatishlarni har haftada va har oyda bir marta umumlashtiradilar. Bularning barchasi bolalarga o'z so'zlari bilan erkin hikoya tuzishga imkon beradi. «Birovlarning» so'zlaridan foydalanish, ya'ni o'qiganlarga tayanish uchun zaruriyat qolmaydi. Bunday usul bilan matnga tayyorlash o'quvchilarning o'zlari ko'rgan, eshitgan, kuzatgan predmet va voqea-hodisalar haqidagi bilimlarini qayta tiklashga yordam beradi. Masalan, qushlarning qishdagi hayotini kuzatish haqida matn yozishga o'quvchilar quyidagi mashqlar yordamida tayyorlanadi. Avval o'qituvchi o'quvchilarga qushlarni kuzatib borishni, kuzatishda nimalarga etibor berishni, qaysi matn, rasmlar bilan tanishishni kuzatgan va o'qiganlarini solishtirishni, kalendarga belgilab, kuzatish daftarlariga yozib borishni topshiradi. Qushlar hayotiga oid o'qigan asarlari, kuzatishlari, o'qish va tabiatshunoslik darslarida o'tilgan mavzularni mustahkamlash jarayonida savollar orqali aniqlab, umumlashtirib boriladi. O'quvchilar kuzatishlarini o'qilgan asarlarning mazmuniga bog'lab so'zlab beradilar. Ona tili darslarida esa qushlar hayotiga oid o'rganilgan grammatik qoidalarga mos so'z, so'z birikmalari tanlanadi, gap va kichik-kichik bog'lanishli matnlar tuzdiriladi.

Muayyan amaliy ko'nikma hosil qilish uchun mutaxassis nutqda belgi va harf, so'z va gap, tushuncha va mushohada orasidagi mantiqiy aloqa intizomini anglashi lozim. O'quvchining lug'aviy birliklardan amalda foydalana olish malakasini shakllantirish muntazam mashg'ulotlar tizimi ustida ishlashni talab etadi. O'zlashtirilayotgan bilim va malaka birligiga erishish imitatsiya darajasidan oziqlanadi. Talaffuz me'yorlariga o'rgatish hali nutqiy faoliyatga yo'naltirishning dastlabki pog'onasi, matn ustida ishlash jarayoni, lug'at jamg'armasini o'zlashtirish va mustaqil fikrlash ko'nikmasi hamkorligini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Unda til dalolati yuzasidan ko'nikma hosil etish hamda lug'at zahirasi muntazam boyitib borish – mustahkamlashga diqqat qaratiladi.

Nutq madaniyatini oshirishning muhim lingvistik omili nazariy ma'lumotni izchil teranlashtirib borish vositasida izohlanadi. Axborotni o'zlashtirish, odatda, oddiyligidan murakkablikka qadar harakatlanadi. Unda bilimlararo munosabatni tayinlash muhim ahamiyat kasb etadi. Grammatik materiallarni o'zaro muqoyasada tavsiflash aksariyat hollarda muvaffaqiyat keltiradi. Negaki, lug'at boyligi va nutqiy ko'nikma yaxlitligi nazariy bilim teranligiga bog'lanadi. Vaholanki, o'zlashtiruvchi faoliyatida ijodiy malaka amaliy ko'nikma tarzida namoyon bo'ladi. Matnlararo shakllanadigan aloqa tizimi nutqiy madaniyat izchilligi va mantiqiylikiga yo'l ochadi. O'z navbatida, nutqiy tanlov aniqligi materialni tez hamda o'ng'ay o'zlashtirish uchun zamin hozirlaydi. Ta'lim ilmiyligi, tizimlilik, nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqadorligi, muntazamligi va bilimlarning bir-biriga bog'liqligi hamda aniqligi uning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

Umuman, yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak vatanparvarlik va insoniylik ruhida tarbiyalash, uning shaxs sifatida voyaga yetishini ta'minlashda til madaniyatiga ongli munosabatni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Ham shaxsiy, ham tabiiy ravishda taraqqiy toptiriladigan nutqiy faoliyat inson ma'naviy borlig'ini belgilaydigan mezon sanaladi. Binobarin, og'zaki va yozma bayon orasidagi lisoniy aloqa olam hamda odam munosabatlarini idrok etish, baholash vositasi bo'lish barobarida milliy o'zlik hissini mustahkamlash, ong-tuyg'uda jiddiy sifat o'zgarishlarini qaror toptirishdek vazifalarni bajaradi. Mazkur holat, o'z navbatida, nutq madaniyatini til quvvat-hofizasiga tutashtirish jarayonining naqadar mashaqqatli va mas'uliyatli maqsadga egaligini to'la dalolatlaydi.

Matn yaxlitligi ta'minoti axborot vazifadoshligidan oziqlanadi. Biroq funksional yangilikka intilish rekroproduktiv nutqni shakllantirish barobarida hissiy-ma'naviy muvozanatga putur yetkazadi. Aslida matn, inson tuyg'usi, ruhiyati kechinmalarini shakllantirishning eng muhim omilidir. Nutqiy faoliyat mazmuni ilmiy tafakkur miqyosi, ijodiy malaka darajasi va amaliy ko'nikma teranligiga bog'liqdir. Matnning maqsadi shaxsni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida shakllantirishdan iborat ekan nutqiy faoliyat mantiqiy izchillikni muayyan nuqtaga yig'ish va umumlashtirish ustqurmasi bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Ta'lim tizimi didaktik mohiyatga erishganda maqsad uning yetakchi omiliga aylanadi.

Yozma va og'zaki nutq uzluksizligini ta'minlashga qo'yiladigan asosiy talablardan biri mustaqil fikrlash madaniyati bilan bog'liq. Aslida mustaqil fikrlash madaniyati ogzaki va yozma nutq orasidagi tafovutni birlashtiradi. Adabiy asar tahlilida o'zaro hamkorlik yetakchi o'rin egallaydi. Unda tahlil tamoyili hissiy idrok izchilligi bilan birikadi.

«Didaktik tahlil yuzaga chiqishi uchun faqat eshituvchi rolida bo'lishi aslo yetarli emas, u albatta, tahlil qiluvchi martabasida bo'lishi kerak. SHundagina natija ijobiy bo'ladi. Adabiyot darslari teng tomonlar faoliyati ekanligi, bu faoliyat ishtirokchilaridan biri bo'lmish o'qituvchi

faqat hayotiy tajribasining boyligi, badiiy asarga munosabat malakasini egallaganligi, estetik mezonlarning shakllanganligi bilan o'qituvchilardan ajralib turishi haqida gapirgan edik. Garchi o'quvchilar sinfda o'rganiladigan asarlarni o'qituvchi singari oldindan to'liq o'qib chiqmagan bo'lsalarda, o'zlarining axloqiy mezonlariga, ma'naviy tajribalariga egadirlar. Chunki har bir inson dunyoga kelgan kundan boshlab o'zi bilib yoki bilmay ma'naviy tajriba orttiraveradi.

Binobarin, badiiy asar talqinidan ta'sirlanish, unga qadriyatlar nuqtayi nazaridan baho berishda o'quvchilar ham o'ziga yarasha ma'naviy huquqqa egadirlar. Adabiyot predmetining maktabda o'rganiladigan o'zga o'quv predmetlaridan asosiy farqi shunda [3] », - deya e'tirof etadi uslubiyatchi-olim Q.Yo'ldoshev. Darhaqiqat, didaktik tahlil nutqiy faoliyat madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantirishga zamin hozirlaydi. Unda og'zaki nutq izchilligi yozma nutq mantiqiylikini ta'minlaydi. Yozuv madaniyati tinimsiz takrorlanib turadigan murakkab tizim sanaladi. To'g'rirog'i, uslubiy husnixat doimiy va davomiy mashqni taqozolaydi. O'z navbatida, nutqiy faoliyat har bir shaklida ma'naviy tajriba va nazariy o'zlashtirish darajasi bayon muvafaqqiyatini ta'min etadi. Axloqiy mezonlar ta'sirida shakllanadigan nutqiy madaniyat o'quv talablarini birinchi o'ringa ko'taradi. Tahlil va idrok uzviyligi ta'minotini markazlashtiradigan konstruksiyada yaxlitlik maksimal nuqtaga ko'tariladi. Moddiy va g'oyaviy munosabat nisbatiga qurilgan tizimda dunyoqarash qadriyatga evriladi. Tasvir tiniqligi hamda ifoda izchilligi muvozanati nutqning organik uyushmasini izohlaydi. Ijtimoiy borliq mohiyatidan ifoda madaniyatiga o'tish matn ijodiy sarhadlarini shakllantiradi. Ichki va tashqi ma'no qatlamlari boshqaruvchanligi og'zaki va yozma nutq mundarijasini butunlashtiradi. SHu ma'noda, nutkiy faoliyat uzluksizligi bayon va tahlil, tasvir va ifoda, talqin va muhokama tushunchalarini jipslashtiradi. Aslida yozma nutq og'zaki bayon namoyon bo'lish tamoyilini reallashtiradi.

Mohiyat, ong hamda yaxlitlik nutq struktural tizimini tasdiqlaydigan asosiy tushunchalar: unda obyektiv materiya subyektiv modallikni yuzaga chiqaradi. Umumtaraqqiyot darajasidan ajralib chiqadigan, aniqroq aytganda, saralanadigan nutqiy faoliyat inson dunyoqarashida markazlashadi. Uning ruhiy-uslubiy negizini mushohada nisbati tashkil etadi. Tafakkur ma'naviy-ma'rifiy-falsafiy-ijtimoiy-qadriyaviy sajiyasi aniq-hissiy ifoda tiniqligi, adabiy umumlashma shartlilik hamda materiya mavjudligi ichki hamkorligi vositasida butunlay rasmiylashadi.

## REFERENCES

1. Hotamov A., Zunnunov N. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: 1992. – B 268.
2. Tvardovskiy A.T. Sobr. soch. v 5-i t. – M.: Nauka, 1971. – S. 342.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996. – B. 104.